

Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)


Doimiy aholi soni.

Toshkent shahar doimiy aholisi soni 2018 yil 1 oktyabr holatiga 2497,9 ming kishini tashkil etib, 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida 33,0 ming kishiga yoki 1,3 %ga o'sgan.


E'tibor bering: 2018 yil yanvar-sentyabr

- Aholi soni **33.0** ming kishiga ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **34.0** ming nafarni tashkil etdi.
- **11.9** mingta vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **14.3** mingta nikoh va **3.1** mingta ajralishlar ro'yxatga olindi.


Toshkent shahar aholisining umumiy o'sishi (2018 yil yanvar-sentyabr)



Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2018 yil 1 oktyabr holatiga, shahar jami aholisiga nisbatan, %da)




Shahar hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil 1 oktyabr holatiga eng ko'p aholi soni Olmazor tumanida 357,3 ming kishini (shahar aholisi sonidagi ulushi 14,3 %ni) va Shayxontoxur tumanida 334,9 ming kishini (13,4 %), aksincha eng kam aholi soni Bektemir tumanida 33,7 ming kishini (1,3 %) va Yakkasaroy tumanida 118,6 ming kishi (4,8 %) tashkil etdi.



Tumanlar kesimida doimiy aholi soni
(2018 yil 1 oktyabr holatiga, ming kishida)



Toshkent shahar aholi soni 2018 yil 1 oktyabr holatiga 2497,9 ming kishi, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 1,8 foizga ko'paydi.



Hududlar kesimida aholining eng yugori o'sish sur'ati 2017 yilning mos davriga nisbatan Sergeli tumanida 3,6 %ga, Shayxontoxur tumanida 1,9 %ga, Yashnobod tumanida 2,5 %ga, aksincha eng kam o'sish sur'ati Mirzo Ulug'bek tumanida 1,1 % ni hamda Chilonzor tumanida 1,4 %ni tashkil etdi.

Demografik holat

Tug'ilish. 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida 34,0 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 18,3 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,7 promillega kamaygan (2017 yilning yanvar-sentyabr oylarida 17,6 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan Mirobod tumanida (14,6 promilledan 16,0 promillega) Sergeli (21,0 promilledan 22,2 promillega) Mirzo Ulug'bek tumanida (14,0 promilledan 14,8 promillega) tumanlarida sezilarli o'sganligi kuzatildi.

Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.



Qiz bolalar:
16,5
ming nafar



**O'g'il bo-
lalar:**
17,5
ming nafar

Toshkent shahri bo'yicha tug'ilganlar soni, kishi yanvar-sentyabr

	2017y.	2018y.	O'sish surati foizda
Toshkent shahar	32 061	34 036	106,2
tumanlar:			
Uchtepa	3 988	4 184	104,9
Bektemir	561	643	114,6
Yunusobod	4 231	4 380	103,5
Mirzo Ulug'bek	2 781	2 974	106,9
Mirobod	1 456	1 617	111,1
Shayxontoxur	4 637	4 876	105,2
Olmazor	4 965	5 282	106,4
Sirg'ali	2 716	2 949	108,6
Yakkasaroy	1 094	1 183	108,1
Yashnobod	2 799	2 916	104,2
Chilonzor	2 833	3 032	107,0

Demografik holat

Vafot etganlar. 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida 11,9 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 6,4 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,3 promillega kamaydi (2017 yilning yanvar-iyun oylarida 6,7 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan birgina Mirobod tumanida (7,7 promilledan 7,8 promillega) o'sgan bo'lib, sezilarli darajada kamayishi Sergeli (7,8 promilledan 7,2 promillega), Yunusobod (6,6 promilledan 6,2 promillega), va Shayxontoxur (5,0 promilledan 4,6 promillega) tumanlarida kuzatildi.

Vafot etganlar



Erkaklar:
6,2 ming
kishi

Ayollar:
5,7 ming
kishi


Toshkent shahri bo'yicha vafot etganlar soni, kishi yanvar-sentyabr

	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati foizda
Toshkent shahar	12 211	11 929	97,7
tumanlar:			
Uchtepa	1 290	1 328	102,9
Bektemir	175	186	106,3
Yunusobod	1 580	1 519	96,1
Mirzo Ulug'bek	1483	1461	98,5
Mirobod	771	788	102,2
Shayxontoxur	1 220	1 156	94,8
Olmazor	1 594	1 502	94,2
Sirg'ali	1008	958	95,0
Yakkasaroy	480	464	96,7
Yashnobod	1 404	1 355	96,5
Chilonzor	1 206	1 212	100,5

2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 61,9 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 14,0 %i o'simtalardan, 5,1 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 4,5 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,6 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 3,0 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 6,9 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,5 ming nafarni tashkil etib, ularning 59,2 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 17,6 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 11,7 %i tug'ma anomaliyalardan, 1,1 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,8 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan va 3,5 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



2018 yil yanvar-sentyabr

Tabiiy o'sish. 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida aholining tabiiy o'sishi 22,1 ming kishini tashkil etib, 2017 yil mos davriga nisbatan 2,2 ming kishiga (2017 yilning yanvar-sentyabr oylarida 19,9 ming kishi bo'lgan) o'sgan.



Tabiiy o'sish:
22,1 ming kishi

Demografik holat

Nikoh. 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 14,4 ming nikohlar qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 7,7 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Yakkasaroy (122,6%), Chilonzor (110,6%), Olmazor (109,6%), tumanlarda tog'ri kelmoqda.

Nikohdan ajralishlar. 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 3,1 mingta nikohdan ajralishlar qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 1,7 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Sergili (148,1%), Mirobodi (142,7%), Uchtepa (132,0%) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Toshkent shahri bo'yicha tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni, birlik (yanvar-sentyabr)

	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar			
	2017 y.	2018 y.	O'sish surati foizda	2017 y.	2018 y.	O'sish surati foizda	
Toshkent shahri	13 634	14351	105,3	2650	3131	118,2	
tumanlar:							
Uchtepa	1 491	1650	110,7	241	318	132,0	
Bektemir	285	288	101,1	57	64	112,3	
Yunusobod	1 797	1940	108,0	377	392	104,0	
Mirzo Ulug'bek	1 382	1252	90,6	312	338	108,3	
Mirobod	638	670	105,0	150	214	142,7	
Shayxontoxur	1 817	1876	103,2	289	299	103,5	
Olmazor	1 713	1877	109,6	310	369	119,0	
Sirg'ali	1 301	1343	103,2	237	351	148,1	
Yakkasaroy	536	657	122,6	123	126	102,4	
Yashnobod	1 341	1324	98,7	308	355	115,3	
Chilonzor	1 333	1474	110,6	246	305	124,0	
		Yashnobod		898	292	525	112
		Chilonzor		890	361	420	108

Demografik holat


Migratsiya. 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida Toshkent shahar bo'yicha ko'chib kelganlar soni 18,9 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 8,0 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi 10,9 ming kishi bo'lib, 2017 yilning mos davrida 10,6 ming kishi bo'lgan.

Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2017 yil yanvar-sentyabr	2018 yil yanvar-sentyabr
Ko'chib kelganlar	19,2	18,9
Ko'chib ketganlar	8,6	8,0
Migratsiya saldosi	10,6	10,9



Toshkent shahri tumanlar kesimida aholi migratsiyasi (1000 aholiga nisbatan)



Migratsiya saldosining yuqori darajasi Yashnobod (1,6 ming kishi), Sergeli (1,4 ming kishi), Chilonzor (1,3 ming kishi) hamda Shayxontoxur va Mirzo Ulug'bek tumanlarida (1,2 ming kishi) qayd etildi.

Toshkent shahar statistika boshqirmasi
Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi
Nashr uchun mas'ul: O.Abduraxmanov
(71) 230-88-22